




ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998945668868
<https://innoworld.net>

2025



INNOVATIVE WORLD

«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

innoworld.net



Mehnat munosabatlarida jamoa shartnomasi

Baxtiyorova Shaxloxon Doniyor qizi
Toshkent viloyati yuridik texnikumi
2-kurs o'quvchisi
+998990663882

Annotatsiya: Jamoa shartnomasi va mehnat shartnomasi tariflari, ko'rsatilishi shart bo'lgan bandlari, vazifalari, afzalliklari va tafovutlari. Mehnat munosabatlarida jamoa shartnomasi va mehnat shartnomasining o'rni.

Kalit so'zlar: mehnat shartnomasi, jamoa shartnomasi, mehnat munosabatlari, xodim, ish beruvchi.

Uzoq yillar davomida mehnat munosablari rivojlanib kelgan va hozirgi kunga kelib mehnat shartnomasi va jamoa shartnomasi muhim ahamiyatga egadir. Har yili ko'plab fuqarolar mehnat munosabatlarida duch kelishadi va o'z huquq va majburiyatlarini mehnat shartnomasi va jamoa shartnomasi orqali mustahkamlashadi. Lekin afsuski hozirgi kunda ham ko'plab fuqarolar mehnat munosabatlarida muammolarga duch kelishmoqda. Buning sabablari asli nimada? Mehnat munosabatlarida jamoa shartnomasi va mehnat shartnomasining o'rni qanday?

2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi mehnat kodeksiga muvofiq mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnatga oid munosabatlarni vujudga keltiruvchi hujjat hisoblanadi ya'ni mehnat shartnomasi tuzish orqali xodim o'z huquqlarini himoya qilishi ish beruvchi esa tartib va barqarorlikni ta'minlashi mumkin. Mehnat shartnomasida taraflarning ma'lumotlari; ish joyi, turi va lavozimi; ish xaqqining miqdori, qo'shimcha ustamalar; ish vaqti, dam olish soatlari va yillik ta'til miqdori; mehnat shartnomaning bekor qilinish tartiblari; tomonlarning imzolari to'liq va eng aniqlik darajada ko'rsatilishi lozim. Mehnat shartnomasining vazifalari mehnat taraflari o'rtasida huquqiy munosabatlarini tartibga solish, xodimning sog'lig'ini, xavfsizligini, huquqlari va erkinliklarini saqlash, mehnat taraflarining o'zaro nizolarini hali qilishdan iborat.

Jamoa shartnomasi esa ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatdir. Bu hujjat mehnat qonunchiligiga asoslangan holda xodimlarning umumiy huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Jamoa shartnomasida asosan mehnat sharoitlari, qo'shimcha mukofot pullari va kompensatsiya to'lovlari, ijtimoiy imtiyozlar(tibbiy xizmat, bolalar bog'chasi, kasallik ta'tili, homiladorlik va tug'ruq ta'tili uchun to'lovlar), xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari(ishsizlik sug'urtasi, pensiya ta'minoti, xodimning malakasini oshirish borasida), kasaba uyushmalari bilan munosabatlar, mehnat nizolarini



hal qilish tartibi, monitoring va nazorat hamda jamoa shartnomasining amal qilish muddati haqida bayon qilinadi.

Mehnat munosabatlarida jamoa shartnomasi va mehnat shartnomasining mohiyati va asosiy tushunchalari shulardan iborat. Lekin ular o'rtasidagi farq qayerda? Bu ikki muhim hujjat mazmuni, maqsadi va amal qilishi bilan farqlanadi. Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o'rtasida tuziladi va har bir xodim uchun individual yondashiladi. Jamoa shartnomasi esa xodimlar va ish beruvchi o'rtasida tuziladi va barcha xodimlarga tegishli umumiy shartlarni belgilaydi. Hattoki har ikki shartnomaning zaruriy bandlari ham farqli. Mehnat shartnomasi faqat bitta xodim uchun amal qilsa, jamoa shartnomasi tashkilotning barcha xodimlari uchun amal qiladi. Mehnat shartnomasining maqsadi xodimning individual huquq va majburiyatlarini muhofaza qilish va mehnat faoliyatini tartibga solish bo'lsa, jamoa shartnomasining maqsadi xodimlar jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash va xodimlarning umumiy manfaatlarini himoya qilishdir. Mehnat shartnomasida xodim va ish beruvchi o'rtasida muzokara bo'lsa, jamoa shartnomasida ish beruvchi va xodimlar(kasaba uyushmasi) o'rtasida muzokara bo'lib o'tadi.

Mehnat shartnomasi va jamoa shartnomasining o'rtasidagi asosiy tafovutlari mana shulardan iborat. Shuning uchun ham mehnat munosabatlarida jamoa shartnomasi va mehnat shartnomasining o'ri beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi tahrirdagi mehnat kodeksi 103-104-107-moddalar.
2. Yangi tahrirdagi mehnat kodeksi 65-66-67-moddalar.

